



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG‘I

20 24yil “ 22” aprel

№ 132

Toshkent sh.

Sog‘liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiyot muassasalari xodimlarini xorijda tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, o‘qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni respublikada tashkil etish uchun xorijiy mutaxassislarni jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 6-sentabrdagi PF–156-son Farmoniga muvofiq **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 7-martda 3500-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Sog‘liqni saqlash vazirining 2024-yil 7-fevraldagi “Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 6-son buyrug‘i ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Sog‘liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiyot muassasalarining xodimlarini xorijda tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, o‘qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni respublikada tashkil etish uchun xorijiy mutaxassislarni jalb etish maqsadida Kuzatuv kengashi faoliyati yo‘lga qo‘yilsin.

3. Quyidagilar:

Sog‘liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiyot muassasalari xodimlarini xorijda tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, o‘qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni respublikada tashkil etish uchun xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo‘yicha nomzodlarni saralash tartibi 1-ilovaga muvofiq;

Sog‘liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiyot muassasalarining xodimlarini xorijda tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, o‘qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni respublikada tashkil etish uchun xorijiy mutaxassislarni jalb etish uchun Ishchi guruh reglamenti 2-ilovaga muvofiq;

Xorijda malakasini oshirgan va stajirovkadan o‘tgan mutaxassislarning malakasini oshirish samaradorligini o‘rganib borish (post-monitoring) guruhi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Fan-ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasi (O'.Ismailov), Raqamli texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish bo'limi (N.Eshnazarov) yilning har choragida Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi davlat tibbiyot tashkilotlarining tibbiyot mutaxassislarini yetakchi tibbiyot va ilmiy muassasalarga qayta tayyorlash hamda malaka oshirish, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va kasb ko'nikmalarini rivojlantirishga yuborish uchun yo'nalishlar kesimida tanlov e'lon qilsin va Sog'liqni saqlash vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirsin.

5. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari rahbarlari:

Tanlovni mazkur buyruqning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Sog'liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiyot muassasalarining xodimlarini xorijda tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, o'qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni respublikada tashkil etish uchun xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo'yicha nomzodlarni saralash tartibiga hamda reglamentga asosan amalga oshirsin;

muassasalarda tanlovda ishtirok etish uchun tibbiyot xodimlarning hujjatlarini qabul qilish va tanlov o'tkazish bo'yicha Ishchi guruhini tashkil etsin;

Ishchi guruh a'zolari taqdim etgan hujjatlarni sohalarga yo'naltirilgan holda o'rganishni ta'minlasin;

tanlov natijalarini Sog'liqni saqlash vazirligining Tanlov komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim etsin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari, Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalari tanlov e'lon qilingan kundan boshlab davlat tibbiyot tashkilotlarining asosiy shtatdagi tibbiy kadrlari hujjatlarini tegishliligi bo'yicha respublika ixtisoslashtirilgan markazlarga yo'nalishlar va muassasalar kesimida taqdim etilishini ta'minlasin;

har chorak yakunida xorijda malakasini oshirgan tibbiyot kadrlarining hisobotlarini umumlashtirsin;

hududiy bosh mutaxassislar tomonidan xorijda malakasini oshirgan tibbiyot kadrlarining hisobotlarini o'rganilishini ta'minlasin;

ushbu hisobotlarni tegishliligi bo'yicha yo'llanma xat bilan Sog'liqni saqlash vazirligi bosh mutaxassislari va bosh konsultantlariga taqdim etsin.

7. Sog'liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassislari va konsultantlari (CPD-koordinator) yilning har choragi oxirgi oyning **15-sanasiga qadar** Sog'liqni saqlash vazirligi bosh mutaxassislari va bosh konsultantlari xorijda malakasini oshirgan va stajirovkadan o'tgan mutaxassislarning jamlangan hisobotlarini qabul qilsin;

sohasi bo'yicha respublika aholisiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini oshirish, tibbiyotga yangi davolash-diagnostika uslublari va zamonaviy fan-texnika yutuqlarini tatbiq etish, sohaviy kadrlar bilim va salohiyatini oshirish hamda joylarda tegishli tibbiy xizmat yo'nalishi bo'yicha holatini o'rgansin;

xorijda malakasini oshirgan va stajirovkadan o'tgan mutaxassislarning hisobotlari bo'yicha xulosani shakllantirsin va takliflar ishlab chiqsin;

yilning har choragi oxirgi oyning **25-sanasiga qadar** xulosa va takliflarni Kuzatuv kengashiga taqdim etsin.

8. **Fan-ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasi** (O'.Ismailov) har yilning mart oyiga qadar kelgusi yil uchun Vazirlik tizimi xodimlarini o'qitish, qayta tayyorlash va stajirovkasini tashkil etish rejasini Jamg'armalar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (Direksiya)ga taqdim etsin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari v.b. D.Sultanov zimmasiga yuklansin.

Vazir v.b.



A.Xudayarov

Sog'liqni saqlash vazirining
2024-yil 22.04 dagi
132 -son buyrug'iga
1-ilova

Sog'liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiyot muassasalarining xodimlarini xorijda tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, o'qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni respublikada tashkil etish uchun xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo'yicha nomzodlarni saralash

TARTIBI

Umumiy qoidalar

1. Ushbu Tartib Sog'liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiyot muassasalarining (keyingi o'rinlarda — Buyurtmachilar) xodimlarini (keyingi o'rinlarda — mutaxassislar) xorijda tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, o'qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni respublikada tashkil etish uchun xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo'yicha nomzodlarni saralash tanlovini tashkil etish, Jamg'arma mablag'laridan foydalanish uchun nomzodlardan hujjatlarni qabul qilish, xorijda malaka oshirish (stajirovka), qayta tayyorlash yakuni bo'yicha hisobot taqdim etish, ularning bilim va ko'nikmalarini amaliyotga joriy qilish tartibini belgilaydi.

2. Mutaxassislarni xorijda malaka oshirish (stajirovka), qayta tayyorlash ta'lim dasturlari bo'yicha yuborish xizmat safariga tenglashtiriladi.

Jamg'arma mablag'laridan foydalanish uchun nomzodlardan hujjatlarni qabul qilish

3. Xorijda malaka oshirish (stajirovka), qayta tayyorlashga jalb qilish va yuborish uchun ochiq saralash tanlovi arizalar kelib tushishi va yig'ilishiga qarab, kalendar yil davomida davriy ravishda, ammo bir yilda kamida ikki marotaba o'tkaziladi.

4. Xorijda malaka oshirish (stajirovka), qayta tayyorlashga yuborish ochiq saralash tanlovi asosida amalga oshiriladi.

5. Tanlovda ta'lim dasturi va hujjatlarni taqdim etish muddati tugagandan so'ng taqdim etilgan hujjatlar ko'rib chiqilmaydi. Biroq ro'yxat tasdiqlangandan so'ng tanlov g'olibi ayrim sabablarga ko'ra xorijda malaka oshirish (stajirovka), qayta tayyorlashda ishtirok etishni rad etsa, uning o'rniga shu mutaxassislik bo'yicha tasdiqlangan xarajat mablag'lar hisobiga tanlovda undan keyingi yuqori ball to'plagan mutaxassis kiritiladi.

6. Nomzodlar quyidagi hujjatlar yig'indisini elektron shaklda Vazirlik tomonidan belgilangan elektron pochta maxsus manziliga yuboradilar:

pasport nusxasi;

oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasasini tugatganligini tasdiqlovchi diplomning nusxasi, guvohnoma nusxasi (klinik ordinatura) va/yoki ilmiy darajasi (fan nomzodi,

PhD va fan doktori, DcS), ilmiy unvonini (katta ilmiy xodim, dotsent, professor) tasdiqlovchi diplom(lar)ning nusxasi (agar mavjud bo'lsa);

xorijiy tillardan bilim darajasini belgilovchi amaldagi milliy yoki xalqaro sertifikat (Milliy kvalifikatsiya sertifikati, IELTS, TOEFL va ularga tenglashtirilgan, muddati o'tgan hujjatlar bundan mustasno) (agar mavjud bo'lsa);

oxirgi 3 yilda xorijda va respublika ta'lim muassasalarida malakasini oshirganligi to'g'risida sertifikat;

malaka toifasiga ega bo'lganligi to'g'risida sertifikat;

mehnat daftarchasi nusxasi;

seminar, konferensiyalarda ma'ruza bilan yoki ma'ruzasiz ishtirok etganligi to'g'risida sertifikat.

7. Nomzodlar taqdim etayotgan hujjatlarining haqqoniyligiga shaxsan javobgar hisoblanadi.

Xorijda malaka oshirish (stajirovka), qayta tayyorlash bo'yicha nomzodlarni saralash tartibi

8. Sog'liqni saqlash vazirligi tanlov o'tkaziladigan tibbiyot tashkilotlarni belgilaydi.

9. Nomzodlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar 1-ilovadagi mezonlarga muvofiq o'rganiladi va o'rganish natijalariga asosan yakuniy xulosa tayyorlanadi.

10. Ishchi guruh tomonidan nomzodning intellektual salohiyati, ma'naviy fazilatlari hamda kasbiy mahoratini baholash maqsadida nomzodlar bilan suhbat o'tkazilishi mumkin.

11. Suhbatda ishchi guruh a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

12. Tanlov natijalariga asosan nomzod to'plagan ballari bo'yicha "o'tdi" yoki "o'tmadi" deb yakuniy xulosa qilinadi.

13. Tanlov natijalariga asosan 56 va undan yuqori ball to'plagan nomzodlar komissiya qarori bilan Tanlov g'olibi deb topiladi.

14. Nomzodlarning o'rtacha ballari teng bo'lgan taqdirda komissiya raisining xulosasiga asoslanib yakuniy qaror qabul qilinadi. Bunda nomzodning intellektual salohiyati, ma'naviy fazilatlari hamda kasbiy mahorati yuzasidan suhbat bahosiga e'tibor qaratiladi.

15. Tanlovning natijalari mas'ul tashkilotlarning veb-saytida joylashtiriladi.

16. Tanlov g'oliblari bo'yicha Mutaxassislarni xorijiy tibbiy ta'lim, ilmiy tashkilotlarga (markazlar, universitetlar va boshqalar) malaka oshirish (stajirovka) va qayta tayyorlashga yuborish rejasi ushbu Tartibning 4-ilovasiga muvofiq Ishchi guruh yig'ilishining qarori bilan tasdiqlanadi.

17. Tanlov o'tkazilgan davrda quyidagilar nomzodlarning xorijda tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, o'qitish, malaka oshirishga qo'yilmasligi uchun asos hisoblanadi:

davlat tibbiyot tashkilotida 5 yildan kam bo'lgan mehnat stajiga ega bo'lganda;
davlat tibbiyot tashkilotida bir shtat birligidan kam shtat birligida ishlaganda;
asosiy mehnat faoliyati xususiy tibbiyot tashkilotida bo'lganda;
nafaqa yoshiga yetgan tibbiyot xodimi bo'lganda;

oldingi yilda o'tkazilgan tanlovda ishtirok etib, g'olib sifatida xorijda malakasini oshirib kelganda.

Respublikaga malakali mutaxassislarni xorijiy tibbiyot hamda ilmiy muassasalardan taklif etish

18. Xorijiy malakali mutaxassisni taklif etish to'g'risidagi qarorni qabul qilishda mazkur mutaxassis yo'nalishining dolzarbligi, uning ilmiy maqomi va malakasi, tibbiyot muassasalarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash bo'yicha qo'yilgan vazifalarga mosligi 2-ilovadagi mezonlarga muvofiq hisobga olinadi.

19. Yuqoridagi talablar asosida Sog'liqni saqlash vazirligining hududiy organlari, davlat tibbiyot tashkilotlari, shuningdek xorijiy tibbiyot tashkilotlari bilan hamkorlik qilish tajribasiga ega bo'lgan tibbiyot xodimlarining taklifini inobatga olgan holda ro'yxat shakllantiriladi. Tavsiya etilgan xorijiy tibbiyot mutaxassisini taklif etish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi yuzasidan Ishchi guruh qaror qabul qiladi.

20. Tavsiya etilgan xorijiy tibbiyot mutaxassisini taklif etish maqsadida Ishchi guruh qarorini Kuzatuv kengashiga taqdim etadi.

Xorijga yuborilgan mutaxassislarning malaka oshirish (stajirovka) va qayta tayyorlash yakuni bo'yicha hisobot taqdim etish

21. Malaka oshirish (stajirovka) va qayta tayyorlash yakuni bo'yicha mutaxassis 3-ilovaga muvofiq tasdiqlangan hisobot shaklini muassasa rahbari bilan kelishgan holda tasdiqlab hududiy bosh mutaxassislar va konsultantlari (CPD-koordinator) ga taqdim etadi.

22. Hisobotlar buyurtmachilarning kollegial organida ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritiladi.

23. Tasdiqlangan hisobotlar va kollegial organ qarori nusxasi buyurtmachilar rasmiy yo'llanma xatiga ilova qilingan holda, qaror chiqqan kundan boshlab 10 ish kunida qog'oz va elektron shaklda Sog'liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassislari va konsultantlari (CPD-koordinator)ga taqdim etiladi.

24. Hisobotlarni Sog'liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassislari va konsultantlari qabul qilish jarayonida ular asoslovchi hujjatlar bilan birga taqdim etilgan taqdirda hisobotlar qabul qilindi deb belgilanadi.

25. Hisobot va ma'lumotlar haqqoniyligi yuzasidan buyurtmachi tashkilot rahbari mas'ul hisoblanadi.

Jamg'arma hisobidan xorijda malaka oshirish (stajirovka) va qayta tayyorlashga yuborilgan mutaxassislarining bilim va ko'nikmalarini amaliyotga joriy qilish

26. Jamg'arma hisobidan malaka oshirish (stajirovka) va qayta tayyorlash o'tab kelgan g'olib nomzodlarning (keyingi o'rinlarda – Tanlov g'olibi) shartnomalarni (kontraktlarni) belgilangan tartibda rasmiylashtirishi va kelgusida ro'yxatga olinishi hamda ijro etish uchun ko'rsatilgan talablar va muddatlarga muvofiq Jamg'armaga taqdim etilishi lozim.

Ta'lim dasturi tugallanganidan so'ng, Tanlov g'oliblari shartnoma (kontrakt) talablariga qat'iy amal qilgan holda diplom, sertifikat yoki boshqa hujjat nusxasini, shuningdek, ta'lim dasturi bo'yicha foydalangan adabiyotlar va tarqatma materiallarning elektron shaklini tibbiyot xodimlari foydalanishi uchun Vazirlikning elektron kutubxonasiga joylashtirishi uchun Ishchi guruhiga taqdim etadi.

27. Tanlov g'olibiga mutaxassisligi bo'yicha quyidagi muddatda to'liq bandlik asosida uzluksiz ishlab berish majburiyati yuklanadi:

a) malaka oshirish ta'lim dasturi bo'yicha – 3 (uch) yildan kam bo'lmagan muddatga;

b) qayta tayyorlash ta'lim dasturi bo'yicha – 5 (besh) yildan kam bo'lmagan muddatga.

28. Tanlov g'oliblari malaka oshirish (stajirovka) va qayta tayyorlash o'tab kelgan amaliy, ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari bo'yicha, o'z mutaxassisligi va qo'lga kiritgan zamonaviy bilim va ko'nikmalari bo'yicha mavzuli malaka oshirish kurslarini va mahorat darslarini tashkil etadilar.

29. Tanlov g'olibi o'zlashtirgan zamonaviy yuqori texnologiyali diagnostika va davolash usullarini o'z tashkilotida tatbiq etadi. Bunda tashkilot rahbari ularga shart-sharoitlarni yaratib beradi.

Tanlov g'olibi xorijiy ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza bilan ishtirok etishi va xalqaro ma'lumotlar bazasidagi yetakchi ilmiy jurnallarda maqola chop etishi, shu bilan birga, kamida bir yil davomida Vazirlik tomonidan tashkil etiladigan boshqa tadbirlarda malaka oshirish (stajirovka) va qayta tayyorlash davrida to'plangan tajriba, olgan bilim va ko'nikmalari borasida o'z fikr va mulohazalarini bayon etadi.

30. Tanlov g'olibi uzrsiz sabablarga ko'ra xorijiy ta'lim, ilmiy yoki boshqa muassasalarning tahsil oluvchisi safidan chetlashtirilgan yoki Jamg'arma ta'lim dasturlari tugagandan so'ng u bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq Vazirlikning davlat tibbiyot tashkilotlari yohud davlat ulushi mavjud bo'lgan tashkilotlarda mehnat faoliyatini davom ettirishdan bosh tortgan taqdirda, Jamg'arma tomonidan uni o'qitishga sarflangan barcha moliyaviy xarajatlar Tanlov g'olibi va uning moliyaviy kafillari (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan birdamlikda qoplab beriladi.

Apellyatsiya

31. Ushbu Tartibga rioya qilingan holda tanlovning o'tkazilishi, shuningdek, tanlov bilan bog'liq bo'lgan boshqa masalalar bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun Ishchi guruh qarori asosida apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

32. Apellyatsiya komissiyasiga nomzodning shikoyat arizasi tanlov natijalari e'lon qilinganidan so'ng o'n kun ichida topshiriladi.

33. Shikoyat arizasi berilganidan so'ng Apellyatsiya komissiyasi arizani besh ish kuni ichida ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

Yakunlovchi qoidalar

34. Jamg'armaning Kuzatuv kengashi buyurtmachilardan malaka oshirish (stajirovka), qayta tayyorlashga yuborish va yakuniy hisobotlar yuzasidan kiritilgan hujjatlar bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olishga haqlidir.

35. Mazkur Tartibda ko'zda tutilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida hal qilinadi.

36. Mazkur Tartib talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Sog'liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiyot muassasalarining xodimlarini xorijda tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, o'qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni respublikada tashkil etish uchun xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo'yicha nomzodlarni saralash Tartibiga
3-ilova

**Malaka oshirish samaradorligini o'rganib borish bo'yicha xorijda malakasini oshirish (stajirovka), qayta tayyorlashdan o'tgan mutaxassislarning
HISOBOTI**

Umumiy ball: **100 ball**

1.		Tibbiyot tashkiloti nomi
1.1		Mutaxassisning F.I.Sh.
1.2		Malaka oshirgan tibbiyot va ilmiy muassasasi nomi
1.3		O'zlashtirilgan yuqori texnologik tibbiyot diagnostika, davolash usuli
2.	Mutaxassisning bilim va ko'nikmalarini amaliyotga joriy qilish	
2.1	Xorijda malakasini oshirgan va stajirovkadan o'tgan mutaxassisning bilim va ko'nikmalarini amaliyotga joriy etish, ular ishtirokida:	30*
2.1.1	mahorat darslarini tashkil etish (soni)	15
2.1.2	vebinarlar va boshqa tadbirlar tashkil etish (soni)	15
2.2	O'zlashtirilgan yuqori texnologik tibbiyot diagnostika/davolash usulini o'zining tashkilotida tatbiq etish	30*
2.2.1	yuqori texnologik tibbiyot diagnostika (nomi)	15
2.2.2	yuqori texnologik tibbiyot davolash (nomi)	15
2.3	O'zlashtirilgan yuqori texnologik tibbiyot diagnostika/davolash usulini hududiy tibbiyot tashkilotlarida tatbiq etish	40*
2.3.1	yuqori texnologik tibbiyot diagnostika (nomi)	20
2.3.2	yuqori texnologik tibbiyot davolash (nomi)	20
	Jami	100

Izoh: mutaxassis hisobotlarni asoslovchi hujjatlari bilan birga topshirganda bosh mutaxassis hisobotni qabul qilgan deb hisoblanadi.

Mutaxassis _____
(F.I.Sh.) (imzo)

Muassasa rahbari _____
(F.I.Sh.) (imzo)